

## **FE'L TURKUMIGA XOS SO'ZLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARINI O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**Annotatsiya.** Fe'l so'z turkumi grammatik kategoriyalarga boy so'z turkumi bo'lib, ana shu shakllar lug'aviy birliklar singari turli uslubiy ma'nolarni anglatadi. Birgina fe'lning o'zida ish-harakat jarayoni va uning tavsifi, harakatning tez yoki sekin bajarilishi, takrorlanishi, bajarilish-bajarilmasligi, harakat bajaruvchisining soni, bajarilish payti kabi qator semantik grammatik ottenkalar ifodalananadi. Maqolada fe'l turkumiga xos so'zlarning uslubiy xususiyatlarini o'rgatishning nazariy asoslari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Fe'l, uslubiy xususiyat, fe'lning zamon shakllari, fe'lning mayl shakllari, nutq uslublari

### **ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ СТИЛЕВЫМ ОСОБЕННОСТЯМ СЛОВ ГЛАГОЛЬНОГО КЛАССА**

**Аннотация.** Глагольная группа — это группа, богатая грамматическими категориями, и эти формы, как и лексические единицы, представляют различные стилистические значения. Отдельный глагол выражает ряд семантических грамматических нюансов, таких как процесс действия и его описание, скорость или медленность действия, его повторяемость, выполняется оно или нет, количество лиц, выполняющих действие, а также время его исполнения. В статье изложены теоретические основы обучения стилистическим особенностям слов, относящихся к категории глагола.

**Ключевые слова:** Глагол, стилистическая особенность, времена глаголов, наклонения глаголов, стили речи

### **THEORETICAL BASIS OF TEACHING STYLISTIC FEATURES OF WORDS OF THE VERB CLASS**

**Annotation.** A verb group is a group rich in grammatical categories, and these forms, like lexical units, represent various stylistic meanings. A separate verb expresses a number of semantic grammatical nuances, such as the process of an action and its description, the speed or slowness of an action, its repeatability, whether it is performed or not, the number of persons performing the action, as well as the time of its execution. The article presents the theoretical foundations of teaching stylistic features of words related to the verb category.

**Key words:** Verb, stylistic feature, verb tenses, verb moods, speech styles

**Kirish.** Ona tili ta'limi o'quvchilarda tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo'lishi uchun o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini tinglay olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim

Ona tili darslarida nutq o'stirish ko'rsatmasi grammatik materialni o'rgatishda o'quvchilarning tilimizdagi har bir so'z turkumi yoki so'z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo'llashni talab etadi, ya'ni grammatik nazariya grammatik to'g'ri

154

va aniq nutq malakalarini shakllantirish anglab, tushunib yozish malakalarini o'stirishga, amalda tadbiq etish uchun o'rgatiladi. Darsda o'quvchilar nutqini o'stirish darsning mazmunida va qo'llanilgan vazifalar turlarida o'z aksini topadi

"Milliy o'quv dasturi"ning qabul qilinishi, muhtaram Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan uzluksiz ta'limning tamomila yangi tizimi, Milliy o'quv dasturi asosida yangi darsliklarning yaratilishi O'zbekistonning xalqaro talablardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan dadil, mustaqil, ijodiy tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda shaxsiy insoniy sifatlari shakllangan barkamol kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi.

Hozirgi kunda kasb-hunar ta'limi tizimidagi ko'pgina o'quv muassasalarida maxsus fanlarni o'qitadigan malakali pedagog kadrlarga talab juda kattadir. Bunday pedagoglarni tayyorlashda, ularni kasbiy shakllantirishda maxsus fanlarning o'quv-uslubiy majmuasini yaratish, o'qitishning yangi metod va shakllarini tadbiq etish zarur. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish hamda oliy o'quv yurtida ta'lim olishi mobaynida uni kasbiy va shaxsiy rivojlanishtirish shakl va metodlarini rivojlanirish muammosi alohida dolzarblik kasb etadi.

**Adabiyyotlar tahlili.** Respublikamizda ta'lim tarbiyaning mazmun va mohiyatining o'zgarishi o'qituvchi va o'quvchi oldiga yangidan - yangi muammolarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelgan ta'lim yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonlarda ta'lim texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Ta'lim tarbiya jarayonida, jumladan, boshlang'ich sinf ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rganish barobarida o'quvchilarning bilim va tahsil olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiriladi, bilish faoliyati faollashtiriladi, ta'lim tarbiya jarayonini yuqori darajada bo'lishiga imkon yaratadi. Biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari ma'suliyatini chuqur his qilgan holda ona tili darslarida fe'l so'z turkumini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgansak ko'zlangan maqsadga to'la erishamiz.

Adabiyyotlar tahlilini o'rganar ekanmiz, XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat so'z turkumlarini, jumladan, fe'l so'z turkumini tadqiq etadi. Fe'lga harakat va holat ifodalovchi turkum sifatida yondashadi. Ayniqsa, olimning fe'l turkumiga oid qarashi katta ahamiyatga ega. Uning "har bir fe'l bir ish bilan uning ishlovchisi hamda bir zamonni bildiradi" tarzida aytilgan fikri juda muhim", -degan fikrlari "Zamonaviy o'zbek tili" asarida ma'lumot sifatida keltirilgan. Olimning fe'lning zamon grammatik kategoriyasiga, shaxs-son kategoriyasiga, shuningdek, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'timli-o'timsizlik, nisbat kabi kategoriyasiga nisbatan o'z qarashini bayon qilganligi to'g'risidagi fikrlarni o'qishimiz mumkin

XX asrning 50-yillaridan boshlab o'zbek tili so'z turkumlarini maxsus, ya'ni fundamental o'rganila boshlandi. Jumladan, 50-yillar boshlarida professor Ayyub G'ulomov fe'l borasidagi o'z kuzatishlarini e'lon qildi. "Zamonaviy o'zbek tili"da keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda uning "Fe'l" kitobining yaratilishi o'zbek tilshunosligida katta voqeа bo'ldi. Bu kitobda: 1. fe'l turkumi alohida yaxlit tarzda chuqur tahlil qilingan; 2. fe'l haqidagi barcha mavjud qarash umumlashtirilgan. Fe'lga xos xususiyat: ma'nosi va grammatik belgisi; grammatik kategoriysi; yasalishi; to'liqsiz fe'l, fe'lning sintaktik vazifasi batafsil tahlil qilinganligi aytilgan.

Undan tashqari XX asr o'zbek tilshunosligi morfologiya sohasining taraqqiyotida yirik olim Said Usmonovning roli katta o'rinn tutadi. Ayniqsa uning "Ba'zi fe'l formalari haqida" (1966) fe'l to'g'risida yozgan kitobi o'zbek tili fe'llarining taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

Akademik Azim Hojiyev fe'l so'z turkumining o'rganilishiga katta e'tibor qaratgan va buning ustida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borgan olim hisoblanadi. Uning "Fe'l", "Ko'makchi fe'l", "To'liqsiz fe'l" kitoblari so'z turkumlari ichida fe'l turkumiga alohida e'tibor qaratganini bildiradi. A. Hojiyevning "Fe'l" kitobida fe'lning tarixi, zamon, nisbat kategoriyalari, fe'lning barcha xususiyatlari atroflicha yoritib berilgan. Uning "To'liqsiz fe'l" monografiyasi tilshunoslikda kam o'rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Monografiyada to'liqsiz fe'l formalari va ular yordamida hosil bo'luvchi fe'l formalarining ma'no va vazifalarini o'rganishga bag'ishlangan.

Shuni aytishimiz kerakki Sh. Rahmatullayev ham fe'l bo'yicha ilmiy tadqiqot olib brogan olim hisoblanadi. Uning "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuv'i" ilmiy ishi bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Ilmiy ishda frazemalar dastlab bog'lashuvsiz va bog'lashuvli deb ikki guruhga

bo`linadi. Bog`lashuvli frazemalar bir, ikki, uch bog`lashuvli deb to`dalanadi va ularning bog`lashuv imkoniyati batafsil bayon qilinadi. "Bog`lashuv asli barcha turkum leksemalariga xos , lekin fe`lda eng kuchli. " deb ta`kidlaydi olim o`z ilmiy ishida.

**Metodlar.** Fe'l ustida ishslashda izchillik, bo'limlar orasidagi bog'lanish, dastur materialining hajmi, tini har bir sinfda o'rganish usullari va vositalari shu so'z turkumini o'rganish vazifasi, lining lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

"Fe'l" mavzusini o'rganishda asosiy vazifalar: so'z turkumi sifatida fe'l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitish hamda og'zaki va yozma nutqda fe'ldan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim imloviy qoidalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir - biri bilan bog'liq holda hal etiladi. Fe'lning lingvistik xususiyatlari xiyla murakkab, shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat lining muhim nazariyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarni hal qilishda qanchalik zarurligi hisobga olinadi. 1-sinfda fe'l ustida ishslash. Fe'l ustida ishslashga tayyorgarlik savodga o'rgatish davrida boshlanadi. Bu davrda o'quvchilaming diqqati fe'inining leksik ma'nosiga qaratiladi; fe'l uchun tipik hisoblangan leksik ma'nosiga qaratiladi; fe'l uchun tipik hisoblangan leksik-grammatik ma'noni, ya'ni predmetning harakatini bildirishni umumlashtirish imkonini beradigan aniq material yig'iladi.

Fe'l ustida ishslash mashqlarini „Alifbe“dagi so'z va mashqlarni o'qish, rasmga qarab gap tuzish bilan bog'lab o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar gap tuzishda mazmunga mos fe'lni topishga, so'z nimani bildirishini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlashga yordam beradigan sharoit yaratadi. Masalan, bolalar kuzda meva va sabzavotlarni, daraxtlami kuzatib yoki rasmlarni ko'rib, gapni mazmunga mos so'zlar bilan to'ldiradilar: Kuzda mevalar nima qiladi?... (pishadi), sabzavotlar nima qiladi?... (yetiladi), daraxt barglari nima qiladi?... (sarg'ayadi). Bolalar nima qilyaptilar?... (dam olyaptilar), ... (o'ynayaptilar), ... (ishlayaptilar).

Fe'lni o'rganishda maqsadga qaratilgan ishlar harakatni bildirgan so'zlar mavzusini o'rganishdan boshlanadi. (1-sinf, o'quv yilining 2-yarmi). Fe'l leksik ma'nosini bilan grammatik ma'nosini (harakat bildirishi) mos keladigan (nima qilyapti?) yugurayapti, arralayapti, sakrayapti, (nima qildi?) yugurdi, arraladi, sakradi, (nima qiladi?) yuguradi, arralaydi, sakraydi kabi misollardan foydalanish bilan, o'quvchilar o'zlar bajargan harakatlarni aytishni so'rab, ular bergen javobini (fe'lni) so'roqlari bilan xattaxtaga yozib, suhbat o'tkazish bilan tushuntiriladi.

O'quvchilarni so'roq berish bilan holat bildiradigan uxlayapti, o'ynayapti, faxrlanadikabi fe'llami ham tanlashga o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlar o'quvchilarda predmet harakatini keng ma'noda tushunish ko'nikmasining shakllana borishiga yordam beradi. Dastur o'quvchilarda so'zlarga so'roq berib, ularni bir-biridan farqlash ko'nikmasini shakllantirishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi fe'inining har xil shakllaridan foydalanib, maxsus mashqlar o'tkazadi. Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'z bilan nima qildi? (nima qilyapti?, nima qiladi?) so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar taqqoslanadi:

Fe'lga so'roq berishga o'rgatish yuzaki bo'lmasligi, o'quvchilar harakat bir kishi tomonidan bajarilsa, nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? so'roqlarini, ikki va undan ortiq kishi tomonidan bajarilsa, nima qildilar?, nima qilyaptilar?, nima qilmoqchilar? so'roqlarini berishni bilishlari zarur. Bunday so'roqlarga javob berishga o'rgatish o'z navbatida, fe'l zamonlarini o'rganishga tayyorlash demakdir.

**Natija va muhokamalar.** 2—3-sinflarda fe'lni o'rganish. Bu bosqichning asosiy vazifasi „Fe'l — so'z turkumi“ degan tushunchani shakllantirish, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning ma'nosini va shakliga qarab farqlash ko'nikmasini hosil qilish, bo'lishsizlik qo'shimchasi (-ma) ning talaffuzi va imlosini o'rgatish hisoblanadi. Fe'lning harakat bildirishi yuzasidan o'quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi ularga shu darsdagi mehnat jarayonini tasvirlashni, ya'ni o'quvchilaming o'zlar bajarayotgan ish-harakatni aytishni so'raydi, suhbat o'tkazadi. Suhbatda „O'qituvchi nima qildi?

O'quvchilar nima qildilar? Hozir o'qituvchi nima qilyapti? O'quvchilar nima qilyaptilar? Endi o'quvchilar nima qiladilar? O'qituvchi nima qiladi?" kabi savollardan ham foydalanadi. Suhbat jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida fe'llarni so'rog'i bilan yozib boradilar. Masalan, nima qildi? — so'zjadi, tushuntirdi; nima qildilar?

— tingladilar, yozdilar; nima qilyapti? — tushuntirayapti, so'rayapti, tinglayapti; nima qilyaptilar? - javob berayaptilar, yozayaptilar, tinglayaptilar; nima qiladi? — tekshiradi, ko'radi; nima qiladilar? —ishlaydilar, bajaradilar, yozadilar.

Suhbatdagi yoki o'quvchilar aytgan gaplardan birini gap bo'lagi jihatdan tahlil qilish asosida xulosa chiqariladi: nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi?kabi so'roqlarga javob bo'lib, predmet harakatini bildirgan so'zlar fe'l deyiladi. Fe'l gapda kesim vazifasida keladi.

Mavzu yuzasidan o'quvchilarda ko'nikma hosil qilish uchun so'roq berib fe'lni aniqlash, gap mazmuniga mos fe'lni tanlab qo'yish, aralash berilgan so'zlardan, shuningdek, rasmga qarab gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Dasturga ko'ra 3-sinfda bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar o'rganiladi. Mavzu suhbat asosida tushuntiriladi. Suhbat uchun „O'qish darsida kimlar o'qidi? Shokir ham o'qidimi? Kim so'zjadi? Alisher so'zladimi? Barno kutubxonaga boradimi? Abdulla- chi?, U qachon bormoqchi? Hozir kim tushuntirayapti? Hozir Tohir gapiryaptimi?" kabi savollardan ham foydalaniladi. O'quvchilar so'roq berib fe'llarni topadilar, ma'nosini qiyoslaydilar va o'qituvchi rahbarligida tushuntiradilar. Fe'l harakatning yuzaga chiqqanini, ya'ni bajarilganligini (o'qidi, so'zjadi), hozir bajarilayotganini (tushuntirayapti), endi bajarilishini (boradi, o'qiydi) bildiradi. Bu fe'llar bo'lishli fe'llar deyiladi. Ayrim fe'llar harakatning bajarilmaganligini (o'qimadi, so'zlamadi), hozir bajarilmayotganini (o'qimayapti), keyin ham bajarilmasligini (bormaydi) bildiradi. Bunday fe'llar bo'lishsiz fe'llar deyiladi. O'quvchilar bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni so'roqlari bilan ikki ustun shaklida yozadilar va so'roqlarini, bo'lishsiz fe'l qanday hosil bo'lganini aytadilar. O'quvchilar bilimi mashqlar bilan mustahkamlanadi, bo'lishsizlik qo'shimchasi -ma -mi shaklida talaffuz qilinsa ham, doim aslicha -ma shaklida yozilishi tushuntiriladi. O'quvchilarda bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni ma'nolariga qarab farqlash ko'nikmasini o'stirish uchun bo'lishli fe'lidan bo'lishsiz fe'l hosil qilish, bo'lishsiz fe'llarning talaffuzi va yozilishini qiyoslash, bo'lishsiz fe'llar bilan gaplar tuzish mashqlaridan foydalaniladi

**Xulosa.** Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning so'z zahirasini boyitishdir. Bu maqsad barcha darslarda amalga oshiriladi. Xususan, "ona tili" asosidagi darslar bu borada mas'ul va yetakchi fan sanaladi. Shuning uchun ham so'z turkumlarini o'rganish bizga ona tili kursining yuqori sinflarda o'qitilishiga zamin hozirlaydi. Chunki yuqori sinfda o'quvchilar fe'l so'z turkumi sintaktik birliliklarda kesim tushuncha orqali ifodalanadi. Kesimning gapdag'i vazifasi fe'lning o'xshash farqli shundagi "Morfologiya" da so'z turkumlari sifatida "sintaksis" da bo'lagi sifatida o'rgatiladi. Ana shuni hisobga olgan holda boshlang'ich sinflarda birinchi bo'lib so'z turkumi sifatida "ot" mavzusi o'tilib, eng oxirida "fe'l" mavzusi o'tiladi. Bu ikkala so'z turkumini qatnashtirsak gap hosil bo'ladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

- 1.Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Bayoz, 2022
- 2.Mehriddinov Z. Isamuhammedov O. "Boshlang'ich ta'lim saboqlari" Toshkent 2014.
- 3.Abuzaurova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: "Fan va texnologiya", 2009
- 4.Zamilova R.R. Uzluksiz ta'lim pedagogikasi va inklyuziv ta'lim: darslik. - Namangan: "USMON NOS1R MEDIA" nashriyoti, 2023 - 700 bet
- 5.Elova D. 2022. "Fe'l grammatic shakllarining uslubiy xoslanishiga ko'ra lingvistik annotatsiyalash masalasi xususida". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya*. 2 (5): 84-96.
- 6.Сайдова, З. С. (2022). Ozbek tili fellarining organilish tarixi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (3), 47-50.
- 7.Nazarovna, M. S. (2024). Fe'lni o'rganish metodikasi. *Ustozlar uchun*, 57(5), 98-103.